QASHQADARYO VILOYATI
G‘UZOR TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

O‘zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, G‘uzor shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 14-uy.Tel:75.552-13-60

2023 - yil 15 - dekabr 338-4-56-Q/23 G‘uzor tuman hokimligi

G‘uzor tumanida 2024-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9- martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq transport vositalarining 2024-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish hamda “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2024-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun

maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari - bir yilda ikki marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - bir yilda bir marta;

tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

Ishlab chiqarilganiga o‘n yilgacha (o‘ninchi yili ham) bo‘lgan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xat boshida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) texnik ko‘rikdan ixtiyoriy ravishda o‘tkaziladi.

Navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat‘i nazar, ularni Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o‘rinlarda - DYHXX) organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

4. Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta – 1 mart- 30 iyunda;

ikkinchi marta – 1 sentabr- 31 oktabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1 yanvar – 31 dekabrda o‘tkaziladi.

5. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tuman komissiyasi rahbariga transport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga

muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo‘yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilg‘isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o‘tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta’minlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik subyektlari – yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o‘tkaziladi hamda tegishli yig‘im undiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik subyektlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

7. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o‘z vaqtida texnik ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 125-sonli qarori 3-bandiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo‘linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi inobatga olinsin.

9. Tuman hokimining 2022-yil 06 dekabrdagi 435-4-56-Q/22-sonli “G‘uzor tumanida 2023-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori 2024-yil 01-yanvar kunidan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari F.Kichkinayev zimmasiga yuklatilsin.

G'uzor tumani hokimi **B.Suyunov**

G‘uzor tuman hokimining
2023-yil 15-dekabrdagi
338-4-56-Q/23-son qaroriga
1-ilova

2024-yil G‘uzor tumani hududidagi transport vositalarini texnik ko‘rigidan namunali o‘tkazish uchun avtotransport vositalarini tekshirish, harbiy safarbarlik transport vositalarini texnik ko‘rigidan o‘tkazish bo‘yicha komissiya a’zolari tarkibi

S.Safarov	-	Tuman IIB JHX YXXB boshlig‘i, komissiya raisi
A’zolari		
A.Qilichov	-	G‘uzor tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi boshlig‘i
Z.Qodirov	-	Tuman mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i
S.Xurramov	-	G‘uzor tuman MK vatanparvar o‘quv texnika sport klubi boshlig‘i
J.Ernazarov	-	Tuman IIB JHX YHXB MAB inspektori, katta serjant, komissiya kotibi

G‘uzor tuman hokimining
2023-yil 15-dekabrdagi
338-4-56-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Tuman hududidagi yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan avtomototransport vositalari va tirkamalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish

J A D V A L I

№	Tashkilot, korxona, xo‘jalik va muassasalar nomi	Texnik ko‘rik o‘tkazish kunlari	Texnik ko‘rik o‘tkazish vaqti	Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan joy	Transportlar soni
1	G‘UZOR TUMAN ELEKTR TA’MINOTI KORXONASI	23.03.2024 yil	soat 10^{00}	Korxona avtosaroyida	7
2	QARSHI NEFT BAZASI G‘UZOR FILIALI	24.03.2024 yil	soat 10^{00}	Korxona avtosaroyida	17
3	MK VATANPARVAR G‘UZOR T USTK	25.03.2024 yil	soat 15^{00}	Korxona avtosaroyida	9
4	G‘UZOR TUMAN YO‘LLARDAN FOYDALANISH UK	26.03.2024 yil	soat 10^{00}	Korxona avtosaroyida	3
5	QARSHI TEXNOLOGIK TRANSPORT KORXONASI (4-AVTOBAZA)	02.04.2024 yil 03.04.2024 yil	soat 10^{00}	Korxona avtosaroyida	76
6	“G‘UZOR-2532” AVTOJAMLANMA MCHJ	04.04.2024 yil	soat 10^{00}	Korxona avtosaroyida	13
7	G‘UZOR QORAKULCHILIK MCHJ	05.04.2024 yil	soat 10^{00}	YHXB da	10
8	SEO va JS MARKAZI bosh vrachi	05.04.2024 yil	soat 14^{00}	YHXB da	2
9	TOZA HUDUD DUK	06.04.2024 yil	soat 10^{00}	Korxona avtosaroyida	9
10	"G‘UZOR TRANS AVTOTEX XIZMAT" MCHJ	06.04.2024 yil	soat 14^{00}	YHXB da	6
11	“AVTOMOTOHAVASKORLAR” TA’LIM MUASSASASI	07.04.2024 yil	soat 10^{00}	Korxona avtosaroyida	11
12	MEXNAT SHIRKATI	07.04.2024 yil	soat 14^{00}	YHXB da	3
13	XXI ASR XUSUSIY FIRMASI	08.04.2024 yil	soat 10^{00}	YHXB da	8
14	AVG‘ON MCHJ	08.04.2024 yil	soat 14^{00}	YHXB da	3
15	ASRORBEK SHAHZODBEK FIRMASI	09.04.2024 yil	soat 10^{00}	YHXB da	3
16	ASH-SHIFO XUSUSIY FIRMASI	09.04.2024 yil	soat 14^{00}	YHXB da	2

№	Tashkilot, korxona, xo‘jalik va muassasalar nomi	Texnik ko‘rik o‘tkazish kunlari	Texnik ko‘rik o‘tkazish vaqti	Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan joy	Transportlar soni
17	BINOKOR G‘UZOR MAXSUS QO‘RILISH KORXONASI	10.04.2024 yil	soat 10^{00}	YHXB da	6
18	IMKON ISLOM ISTIQBOLI	06.05.2024 yil	soat 10^{00}	YHXB da	2
19	G‘UZOR BUNYOTKOR QO‘RILISH KORXONASI	13.04.2024 yil	soat 14^{00}	YHXB da	6
20	G‘UZOR OQ TULPORI F/X	15.04.2024 yil	soat 10^{00}	YHXB da	5
21	G‘UZOR TRANS SERVIS MCHJ	16.04.2024 yil	soat 10^{00}	YHXB da	2
22	“G‘UZOR AVTO” MCHJ	17.04.2024 yil	soat 10^{00}	YHXB da	2
23	“NASAF AVTO” MCHJ	20.04.2024 yil	soat 10^{00}	YHXB da	2
24	“SHURTAN GAZ-KIMYO MAJMUASI” MCHJ	22.04.2024 yil 23.04.2024 yil	soat 10^{00}	Korxona avtosaroyida	191
25	SHO‘RTAN NEFT VA GAZ QAZIB CHIQARISH BOSHQARMASI	24.04.2024 yil 25.04.2024 yil	soat 10^{00}	Korxona avtosaroyida	268
26	SHGKM QURILISH MONTAJ VA TA’MIRLASH BOSHQARMASI U.K	27.04.2024 yil	soat 10^{00}	Korxona avtosaroyida	16
27	“G‘UZOR SITI” MCHJ	28.04.2024 yil	soat 10^{00}	YHXB da	2
28	G‘UZOR TUMANI HALQ TA’LIMI BO‘LIMI	04.05.2024 yil	soat 10^{00}	YHXB da	2
29	YOVONI XUSUSIY SAVDO KORXONASI	05.05.2024 yil	soat 10^{00}	YHXB da	4
30	ZAFAR MCHJ	05.05.2024 yil	soat 12^{00}	YHXB da	2
31	HOSIYATLI FERMER XO‘JALIGI	24.04.2024 yil	soat 12^{00}	YHXB da	1
32	SHO‘RTAN PROFESSIONAL FUTBOL KLUBI	24.04.2024 yil	soat 12^{00}	Korxona avtosaroyida	11
33	OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI	24.04.2024 yil	soat 12^{00}	Korxona avtosaroyida	12
34	OZOD IBRAT KAPITAL QO‘RILISH KORXONASI	24.04.2024 yil	soat 12^{00}	Korxona avtosaroyida	10
35	YANGI OBOD XUSUSIY KORXONASI	24.04.2024 yil	soat 12^{00}	YHXB da	4
36	XISORAK MAXSUS SUV QO‘RULISH MCHJ	24.04.2024 yil	soat 12^{00}	YHXB da	8
37	SHER YURAK MCHJ	24.04.2024 yil	soat 12^{00}	YHXB da	4
38	ROAD S KING LOGISTIC	24.04.2024 yil	soat 12^{00}	Korxona avtosaroyida	10
39	JANUBIY YO‘L QO‘RILISH MCHJ	24.04.2024 yil	soat 12^{00}	Korxona avtosaroyida	39

№	Tashkilot, korxona, xo‘jalik va muassasalar nomi	Texnik ko‘rik o‘tkazish kunlari	Texnik ko‘rik o‘tkazish vaqti	Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan joy	Transportlar soni
40	KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDDIKKA KO‘MAKLASHISH MARKAZI	24.04.2024 yil	soat 12^{00}	YHXB da	1
41	BUYUK AMIR LOGISTIK MCHJ	24.04.2024 yil	soat 12^{00}	Korxona avtosaroyida	23
42	BUNYODKOR-KAMOL XUSUSIY KORXONA	24.04.2024 yil	soat 12^{00}	YHXB da	1
43	ISTIQBOL XUSUSIY SAVDO DO‘KONI	24.04.2024 yil	soat 12^{00}	YHXB da	2